

---

**INTEGRATSIYALASHGAN DASTURLAR. INTEGRATSIYALASHGAN  
DARSLARNI TASHKIL ETISHNING SAMARADORLIGI**

**Umarova Dilafro'z Anvarovna**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti „Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi“  
o‘qituvchisi*

**Asqarova Sabrina Akbar qizi**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 4-kurs  
talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada integratsiyalashgan dasturlar mohiyati, ularning ta’lim jarayonidagi ahamiyati va darslarda integratsiyani qo‘llash samaradorligi yoritilgan. Shuningdek, integratsiyalashgan darsslarni tashkil etish usullari, pedagogik yondashuvlar hamda ilg‘or xorijiy tajribalar asosida tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** integratsiya, integratsiyalashgan dastur, tarmoqlararo aloqadorlik, innovatsion ta’lim, fanlararo bog‘liqlik, metodika.

**Abstract:** This article discusses the essence of integrated programs, their importance in the educational process, and the effectiveness of using integration in lessons. It also analyzes methods of organizing integrated lessons, pedagogical approaches, and advanced foreign experiences.

**Keywords:** integration, integrated program, cross-sectoral connectivity, innovative education, interdisciplinary connectivity, methodology.

**Абстрактный:** В статье рассматривается сущность интегрированных программ, их значение в образовательном процессе, а также эффективность использования интеграции на уроках. Также были проанализированы методы организации интегрированных уроков, педагогические подходы и передовой зарубежный опыт.

**Ключевые слова:** интеграция, комплексная программа, межсекторальная связь, инновационное образование, междисциплинарная связь, методология.

**Kirish**

XXI asr ta’limi tezkor o‘zgarishlar, yangi bilimlar va innovatsion yondashuvlar asosida shakllanmoqda. Bu jarayonda fanlararo bog‘liqliknin yo‘lga qo‘yish, o‘quvchilarda tizimli fikrlash, muammoli vaziyatlarda samarali qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir. Shu nuqtayi nazardan integratsiyalashgan ta’lim dasturlarining joriy etilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda boshlang‘ich maktab ta’limini

integratsiya qilish haqida ko'p gapisilmoqda. Bu tushuncha kichik maktab o'quvchisi atrofidagi olamni bir butunligicha qabul qilish, uning uchun tabiatshunoslik, rus tili, musiqa va boshqa o'quv fanlari nomi emas, balki atrofidagi olam obyektlarining tovushlar, ranglar, hajmlarning turli-tumanligining qiziqarliligi bilan harakterlanadi. Bolalarning tabiat va kundalik hayotdagi barcha narsalarning bog'liqligini ko'rishga o'rgatish kerakligini o'qituvchi sezadi, biladi. Shunday ekan, ta'lif integratsiyasi hozirgi zamon talabiga javob beradimi, uni qanday tashkil etish kerak kabi savollar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

### 1. Integratsiyalashgan dasturlar mohiyati

Integratsiyalashgan dasturlar – bu bir nechta fan yoki ta'lif yo'nalişlarini yagona mavzu, muammo yoki kompetensiya atrofida uyg'unlashtirib o'qitish tizimidir. Ushbu yondashuv orqali o'quvchilar real hayotiy vaziyatlarga yaqin bo'lgan topshiriqlarni bajaradi va chuqur bilimga ega bo'ladi.

### 2. Integratsiyalashgan darslarni tashkil etishning usullari

Ta'lifni integratsiyalashtirishdan ko'zlangan asosiy maqsad boshlang'ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurni yaxshi shakllantirish va ularning rivojlanishi qonunlariga o'z munosabatini bildirishga yo'naltirishdan iboratdir. Shuning uchun ham kichik maktab o'quvchisi predmet yoki voqeа-hodisalarini bir necha tomondan ko'rishi muhimdir. Asosiy fanlarni o'zlashtirish va olamdagи bor narsalar qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarini o'rgatish ta'lifni integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir. Bunga turli darslar tushunchalariga ko'p marta qaytish, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo'lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Shunday qilib, yaxshi shakllangan, tuzish va o'tkazish tartibiga ega bo'lgan, tarkibiga shu o'quv predmetiga tegishli bo'lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin.

Integratsiyalashgan darslarni tashkil etishda quyidagi metodlar qo'llaniladi:

**Mavzuli integratsiya:** Bir necha fanlar umumiy mavzu atrofida birlashtiriladi (masalan, "Tabiat va jamiyat").

**Faoliyat asosida integratsiya:** O'quvchilar biror faoliyat turini bajarish orqali bir nechta fan bilan bog'liq bilimlarni egallaydi.

**Muammo asosida integratsiya:** Dars muammoli vaziyat asosida tashkil etiladi va turli fanlar yordami bilan yechim topiladi.

Integratsiyalashgan darslar - interaktiv ta'lif tizimi bo'lib, integrativ bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish asosida ko'rgazmali mahoratni vujudga keltirish sirlarini o'rganadi. Ko'rgazmali ta'lif tizimi turli xildagi turlar, shakllar, usullar, obyektlar asosida qurilgan. Integratsion kursning maqsad va vazifalari maktab tabiiy-ilmiy ta'lif tizimida tavsiflanadi. Bilimning integratsiyalashgan (ko'rgazmali) tarmog'ida integratsiyalashning

usul va vositalari: ta'lif rejasidagi o'qitish joyida vaqtning hajmiga qarab, shu kursni to'la o'zlashtrish vaqtin o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi ko'p maqsadli va rang-barangliligi bilan tavsiflanadi. Har bir o'quv predmetini o'qiyotgan paytda o'quvchilarga to'g'ri keladigan psixik qo'zg'alish hosil qilishi, bu materialni o'zlashtirilishiga katta yordam beradi, uni tez yodda saqlashga, emotsiyal anglashga, fikrlash qobiliyatining o'sishi, nutq va tasavvurning rivojlanishiga olib keladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fikrlash qobiliyatining har xil turlarini shakllantirish integratsiyaning negizi hisoblanadi. Asosiy fanlarni o'zlashtirish va olamdag'i bor narsalar qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarini o'rnatish ta'limi integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir. Bunda turli darslar tushunchalariga ko'p marta qaytish, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshta tushunarli bo'lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Shunday qilib, tarkibiga shu o'quv predmetiga tegishli bo'lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin.

#### Integratsiyalashgan darslarning samaradorligi

Tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, integratsiyalashgan darslar quyidagi natijalarga olib keladi:

O'quvchilarda mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va qaror qabul qilish ko'nikmalari rivojlanadi;

O'zlashtirish darajasi oshadi, chunki bilimlar hayotiy tajriba bilan bog'lanadi;

O'qituvchilarda metodik yondashuvlarning ko'lamni kengayadi;

Fanlararo bog'liqlik kuchayadi, bu esa chuqur va mukammal bilimlarga zamin yaratadi.

#### 4. Xorijiy tajriba va zamonaviy yondashuvlar

Finlyandiya, Singapur, Kanada ta'lif tizimlarida integratsiyalashgan ta'lif keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa, loyiha asosida o'qitish, STEAM yondashuvi (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) integratsiyani samarali tashkil etishning muhim vositalaridandir.

#### 5. O'zbekiston ta'lifida integratsiyalashgan yondashuvlarni joriy etish

So'nggi yillarda O'zbekiston ta'lif tizimida ham integratsiyalashgan yondashuvlar bo'yicha ijobjiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Boshlang'ich sinflarda fanlararo darslar tashkil etish, o'qituvchilarning malakasini oshirish, sinov dasturlar asosida faoliyat yuritish buning yaqqol misolidir.

Integratsiyalashgan dasturlar orqali o'quv jarayoni yanada samarali va mazmunli bo'ladi. Fanlararo bog'liqlikni kuchaytirish, o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish hamda ularni real hayotga tayyorlash imkonini beradi. Integratsiyalashgan darslar – bu

zamonaviy ta'limning muhim yo'nalishidir. Hozirgi kunda bir qator predmetlari uchun umumiyligi bo'lgan tushunchalar orasidagi aloqalarni o'rnatish psixologik va metodik asosiy bo'lgan integratsiyalangan darslar tizimini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish lozim. Shu bilan birga predmetlararo aloqalar dars tarkibi darajasida o'rgatilishi va zarur o'qitishning vositalari bilan ta'minlanishi kerak.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" 2017.02.07.
2. <https://lex.uz/acts/-3107036>
3. R.Mavlyanova, N.Raxmankulova. "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi", Toshkent "Voris nashriyot", 2013.
4. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova. "Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi", Toshkent "Ilm ziyo", 2009.
5. T.G'afforova, E.Shodmonov, G.Esheturdiyeva. 1-sinf "O'qish kitobi", "Sharq" Nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriri, Toshkent-2018.
6. T.G'afforova, E.Shodmonov, X.G'ulomova. 1-sinf "Ona tili", "Sharq" Nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriri, Toshkent-2018.
7. Abdullaeva N., "Zamonaviy ta'lim texnologiyalari", Toshkent, 2021.
8. Dewey J., "Experience and Education", New York, 1938.
9. Mavlonova R., "Innovatsion pedagogika", Toshkent, 2020.
10. Vahobov A. va boshqalar, "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat", 2022.